

NAVOIYNING RUBOIY VA TUYUQ, FARDLARI TAHLILI

Vafoqulova Go’zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning ruboiy, tuyuq va fardlari tahliliga to’xtalgan.

Kalit so’zlar: ruboiy, fard, tuyuq, jinsdosh, g’amza, payvasta, mufradot.

Alisher Navoiy bir qator go’zal tuyuqlar yozgan. To’g’ri, shoir ijodida tuyuq miqdor jihatidan katta o’rin tutmaydi. Lekin badiiy saviyasi hamda tasvir maromiga ko’ra, Navoiy tuyuqlarini she’riyatimiz rivojidagi o’ziga xos bosqich deyish mumkin. Turkiy til jinsdosh - shakli o’xshash, ammo turli ma’nolarni ifodalovchi so’zlarga boyligi bilan ajralib turadi. Hazrati Navoiy ona tilining ana shu imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalana olish salohiyatini namoyish etib, o’n uchta mumtoz tuyuq yaratdi. Shoir „Yo]abdurur” tarzida qofiyalangan tuyuqda ma’shuqa sifatlari hamda oshiq holatini yuksak mahorat bilan tasvirlaydi:

Yo rab, ul shahd-u shakar yo labdurur?

Yo magar shahd-u shakar yolabdurur?

Jonima payvasta novak otqali,

G’amza o’qin qoshig’a yolabdurur.

Tuyuq mazmunini quyidagicha izohlash mumkin: „Yo rabbim, bu asalmi, shakarmi, yo labmi? Yo u sanam asal, shakar yalabdimi? Jonimga tinimsiz (payvasta) o’qlar otmoq uchun g’amza (noz-karashma) o’qini qoshiga (qoshning yoyga o’xshashligiga ishora) joylabdimi?” Tuyuqning butun tarovati „yolabdurur” so’zi ifodalagan turli ma’nolar ichiga yashiringan. Qofiya vazifasini bajargan so’z uch o’rinda uch ma’noni ifodalab keladi: a) yo labmikin? degan so’roqni; b) yalabdimi degan taajjubni; d) joylabdimi degan hayratni ifodalaydi. Tajnis (omonim) so’z ham qofiya, ham radif o’rnida kelgan. Tuyuq aaba tarzida qofiyalanib, ramali musaddasi maqsur vaznida yozilgan. Navoiy boshqa bir tuyug’ida ham „yoqilur” so’zining jinsdoshlik imkoniyatlaridan foydalangan holda yetuk asar yarata olgan:

La’lidin jonimg’o o’tlar yoqilur,

Qoshi qaddimni jafodin yo qilur.

Men vafosi va’dasidin shodmen,

Ul vafo bilmonki qilmas yo qilur.

Bu tuyuq tajnisli. Tajnis ham qofiya, ham radif bo’lib kelayotir. Barcha tuyuqlar singari bu ham ramali musaddasi maqsur vaznida yozilgan.

Fardlari. Fard arabcha „yolg’iz” degan ma’noni bildirib, atama sifatida bir bayt, ya’ni ikki satrdan iborat she’rlarga nisbatan qo’llaniladi. Ular, odatda, turli munosabat bilan yo’l-yo’lakay aytilgan she’rlar bo’ladi. Fardning ko’pligini mufradot (fardlar) deydilar. Navoiyning fardlarida muayyan hayotiy vaziyatlarda qo'l keladigan xulosalar o’ziga xos va ta’sirli ifodalangan:

Kishi aybing desa, dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu,

Chu ko'zgu tiyra' bo'lди, o'zga aybing zohir aylarmu?

Aybingni aytgan kishini yoqtirmaslik hammaga xos. Lekin bu bilan o'ziga zarar qilayotganini hazrati Navoiyning ushbu fardi kishiga juda tushunarli va ta'sirli qilib yetkazib beradi. Chindan ham dam urilsa, ya'ni nafas tegsa, ko'zgu xiralashadi. Fardda payg'ambarimizning: „Musulmon musulmonga ko'zgu”, degan hadislari shoir tomonidan o'ziga xos tarzda badiiy shaklga solingan. Odam hamisha o'zini bilishga intilib yashaydi.

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,

Futuvvat barcha qilmoqdir, demak yo'q.

Demak, muruvvatli odam borini birovlargacha beradi, o'zi yemaydi, jo'mard, mard, ya'ni futuvvatli odam esa, ko'p ish qiladi, lekin qilgan ishi haqida hech kimga bir og'iz ham gapirmaydi. Barcha buyuk shaxslar singari hazrati Navoiy ham o'ziga nisbatan o'ta talabchan.

Ruboiylari. Navoiy ko'plab ruboiy ham yozgan. „Xazoyin ul-maoniy” to'plamiga shoirning 133 ruboysi kiritilgan.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

EI anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.

Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish.

Ushbu ruboiyda erk tuyg'usi va vatanidan uzoq („g'urbat”)da bo'lgan kishi, ya'ni „g'arib”ning holi ifoda etilyapti. Shoir g'urbatdagi g'aribning quvnoq bo'lishi, begona elning unga shafqat va mehribonlik ko'rsatishi mumkin emasligini tasvirlaydi. Bu fikrni ta'sirliroq qilish uchun ruboioining so'nggi ikki satrida psixologizm asosiga qurilgan go'zal bir qiyos keltiradi. Chunonchi, bulbulga oltindan qafas yasab. ichida qizil gul ko'kartirib qo'yilsa ham, unga tikanlar orasidagi o'z ini o'rnini bosa olmasligi ko'rsatilgan. Bulbul erkinlikdagina o'zini bulbul his qiladi. Oltindan bo'lqa-da, qafas baribir qafas. Demak, g'urbatdagi kishini har qancha ardoqlamasinlar, u shodmon bo'la olmaydi.

Navoiy ruboiylarga faqat falsafiy fikrlar bayon qilish vositasi deb qaramaydi. Bu holni uning „Jon”imdagi jim...” deb boshlanadigan yoki „Ko'z birla qoshing yaxshi...” misrasi bilan boshlanadigan ruboiylari misolida ko'rish mumkin:

Ko'z birla qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,

Yuz birla so'zung yaxshi, dudog'ing yaxshi,

Eng birla menging yaxshi, saqog'ing yaxshi,

Bir-bir ne deyin, boshtin-ayog'ing yaxshi.

Ruboiy yor tasviriga bag'ishlangan. Shoir ko'proq tavsif — vASF etish yo'lidan boradi. Tavsif bo'lib hamki, favqulodda tashbeh — o'xshatishlar, kutilmagan sifatlashlar yo'q. Sodda, jo'ngina to'g'ridan to'g'ri e'tirof turibdi. Lekin shoir iste'dodi ana shu jo'ngina so'zlar va bosiq e'tirofni go'zal badiiy hodisaga aylantira olgan. Muallif yor timsoliga oid biror nuqtani oladi-da, uni „yaxshi” deb e'tirof etadi (ko'z, qosh, qabog', eng — yanoq, meng — xol, saqoq — iyak). Va she'r so'ngida ularni „Bir-bir ne deyin, boshtin-ayog'ing yaxshi”

tarzida jamlaydi. Natijada, oddiy e'tirofnii ifodalovchi so'zlardan go'zal va ta'sirchan badiiy manzara hosil bo'ladi. „Yaxshi” radif bo'lib kelgan. Qofiyalanish tizimi aaaa.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik-majmua. –Toshkent, 2006
2. Adabiyot” darsligi. “O’qituvchi” T: 2006